ISSN 2181-371X
SJIF 2023: 5.305 VOLUME 2 ISSUE 9
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

# CHET TILI DARSLARIDA QO'SHIQDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Majidova Muhayyo Sirojiddinovna**
O'zDJTU,
Roman-german filologiyasi fakulteti
Nemis tili amaliy fanlar kafedrasi
o'qituvchisi
mukhayyo.84@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tili darslarida qo'shiqdan foydalanishning maqsadi va ahamiyati haqida so'z boradi. Bundan tashqari, hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda chet tillari o'rganish asosiy masalalardan biri ekanligi va bugungi kun o'quvchisiga qo'shiq orqali chet tilini o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, tilni oson o'rgatish yo'llari ham yoritib berilgan. Tadqiqotmizning maqsadi qo'shiq orqali asosiy til ko'nikmalarini rivojlantirish va shu bilan birga o'quvchining darsdagi ishtirokini faollashtirishdir.

**Kalit so'zlar:** qo'shiqning ahamiyati, til ko'nikmalari, qiziqtirmoq, chet tili, qofiyadosh, rivojlantirmoq, madaniyat, qadriyat.

**Аннотация:** В этой статье рассматривается цель и значение использования песни на уроках иностранного языка. Кроме того, в нынешнюю бурно развивающуюся эпоху изучение иностранных языков является одним из основных вопросов, и для сегодняшнего читателя также освещаются способы легкого обучения языку, повышая его интерес к чтению иностранного языка с помощью песни. Цель нашего исследования-развить базовые языковые навыки с помощью пения и в то же время активизировать участие учащегося в классе.

**Ключевые слова:** значимость песни, языковые навыки, заинтересовать, иностранный язык, рифмовать, развивать, культура, ценность.

**Annotation:** This article will talk about the purpose and importance of using a song in foreign language lessons. In addition, in the current period of intense development, the fact that learning foreign languages is one of the main issues and increase the interest of today's student in reading a foreign language through singing, easy ways to teach the language are also highlighted. The purpose of our research is to develop basic language skills through singing and at the same time to activate the student's participation in the lesson.

**Keywords:** significance of the song, language skills, Interest, foreign language, rhyme, develop, culture, value.

Hozirgi davr o’quv jarayoni pedagigik texnologiyalarni tatbiq qilish bilan xarakterlidir. Ayni paytda oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida o’qitish sifatini yanada yaxshilash ,yetishib chiqayotgan kadrlarni zamon talabiga moslash muhim masalalardan biridir. Bu esa o’z navbatida o’quvchini o’rganiyotgan faniga qiziqishi, shu sohani chuqur egallash uchun unga mehr qoyishi ko’p jihatdan o’qituvchining mahoratiga bog’liq. Bugungi kunda ta’lim tizimida chet tillarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishga juda katta e’tibor qaratilmoqda, Davlatimiz rahbarining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish va uni yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘lmoqda. Mazkur qaror bilan ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni o‘rganishni kengaytirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi. Unga ko’ra har bir pedagok chet tili darslarini zamonaviy metodlarni qo’llagan holda o’tishi,o’quvchilarning bilimini barcha  til ko’nikmalarni (gapirish,t inglab-tushininsh, o’qish, yozish) asnosida rivojlantirishi,o’z pedagogik mahoratidan kelib chiqib butun sinfni til o’rganishga jalb qila olishi lozim.

Chet tili darslarida zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan foydalanishda ayniqsa qo’shiqning o’rni juda katta bo’lib, bunda qo’shiqlar butunlay o’zgacha

vazifalarni bajaradi.Ular darsni qiziqarli bo'lishini, honada o'rganiliyotgan til muhitini yaratishni ta'minlaydi va o'rganuvchiga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. Darsda qo'shiqdan foydalanishda amaliy maqsadlarga tayaniladi. Qo'shiqni eshittirganda tinglab tushinish ko'nikmasi rivojlantirilsa ,uni birga ko'ylaganda chet tili so'zlaridagi ohang va talaffuz farqlari o'rganiladi, ularni yod olinganda esa o'rganuvchining so'z boyligi kengayib, yangi so'zlar mustahkamlanadi. Qo'shiqning yana bir muhim ahamiyati shundaki,qo'shiq mantnidagi so'zlar aksariyat hollarda qofiyadosh bo'ladi va ular ko'ylash davomida ko'p bora takrorlanganligi sababli ular o'quvchi xotirasida tez saqlanadi. Bundan tashqari birgalikda ko'ylanuvchi qo'shiqlar o'quvchilarni bir biriga yaqinlashtiradi, ular orasida do'stona munosabat paydo qiladi va guruh bo'lib ishlalanda (teamwork) yaxshi natijaga erishishga yordam beradi. Chet tilini o'qitishning maqsadi nafaqat bilim berish, balki maktab o'quvchilarining ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. Shuningdek, ular tomonidan geografik, lingvistik, mintaqaviy, madaniy va estetik tabiat to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish, ular uchun boshqa milliy madaniyat qadriyatlarini bilish hamdir. [3,14]. Qoshiq tanlaganda tili o'ganilayotgan mamlakatning madaniyaniyati, urf-odati,yashash tarzi,bayramlari haqida ko'ylovchi qo'shiqlardan foydalanilsa bu o'rganuvchida chet tiliga nisbatan katta qiziqish o'yg'otadi.

Bugungi kunda deyarli barcha zamonaviy chet tili o'qitish uchun mo'ljallangan darsliklarning har bir bo'limida qo'shiq bilan ishlash qismlari mavjud. Qo'shiq bilan ishlaganda chet tilini o'rganishda muhim sanalgan 4 ta bilim ko'nikmalari (gapirish, tinglab-tushinish, o'qish ,yozish) samarali rivojlantiriladi va bunda qo'shiqni tinglashdan oldingi,tinglash vaqtidagi va tinglab bo'lgandan keyin bajariladigan mashq turlari mavjud. Masalan, qo'shiqni tinglashdan oldingi mashqlar ko'pincha gapirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan, bunda qo'shiqning nomi aytilib, u nima haqida borishi mumkinligi so'raladi va o'quvchi o'z taxmin hamda fikrlarini bayon etadi, bunda to'g'ri yoki hato so'zlari bo'lmasdan o'rganuvchi o'zidagi goyani erkin ifogalaydi yoki yana bir usul, o'qituvchi qo'shiq matnidan ayrim tayanch

so'zlarni doskaga yozadi va o'quvchilar qo'shiq nima haqidaligini taxmin qiladilar. Yangi grammatik mavzuni tushuntirishda talabalar qo'shiq orqali ko'rsatilgan grammatik tuzilmalarni osongina taniydilar, bu esa yangi materialni mustahkamlashga va uni tegishli nutq vaziyatlarida ishlatishga katta yordam beradi.[4,195]

Qo'shiqni tinglash vaqtidagi mashqlar darsning maqsadiga bog'liq bo'ladi, agar o'qituvchi qo'shiq orqali gramatika bilan ishlamoqchi bo'lsa, shunga hos vazifa beradi, masalan, tinglash davomida barcha egalik olmoshlarini toping, agar o'qituvchi ko'proq qo'shiqdagi yangi so'zlarni o'rganishni maqsad qilsa, unda tinglash davomida o'quvchiga notanish so'zlarni yozib borishni buyuradi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchi chet tili darsida faqat o'rganishni maqsad qilib qo'yilgan tilda mashg'ulotni olib borishi lozim.

Chet tili darslarida qo'shiq tanlashda quyidagi kreteriyalariga tayaniladi:

- O'quvchini o'ziga tortuvchi va qiziqish uyg'otuvchi qo'shiqlar;
- Ijodiy natija beruvchi birgalikda ko'ylovchi yoki harakatlar bilan ko'ylanuvchi qo'shiqlar
- Mavzusi va ohangi o'quvchini gapirishga undovchi qo'shiqlar
- Dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqealar haqidagi qo'shiqlar;
- Tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati,urf-odati,yashash tarsi haqidagi va bayramlarida aytiladigan qo'shiqlar;
- Biror bir mavzuga bag'ishlangan darsning kirish, asosiy yoki yakunlovchi qismlari uchun xizmat qiluvchi qo'shiqlar;
- Darsning lo'g'at yoki gramatika qismi uchun mo'ljallangan qo'shiqlar;

Aytib o'tganimizdek, qo'shiqdan foydalanish darsni zerikarli bo'lmasligini ta'minlaydi,bunda o'qituvchi qo'shiqni darsning qaysi qismida qo'llashini aniqlab olishi lozim. Agar qo'shiq darsning kirish qismi bo'lib hizmat qilsa ,bu holda ko'proq mavzuga doir qo'shiqlar tanlaniladi,masalan,mavzu sevgi yoki biror bayram haqida bo'lsa, shu darsning kirish qismi sifatida bayramda aytiladigan milliy qo'shiqdan

foydalaniladi. Bundan tashqari qo'shiq dars davomidagi zuriqish va charchoqni kamaytirish uchun ham darsninng asosiy yoki yakun qismlari uchun qo'llaniladi. Umuman olganda chet tilidagi qo'shiqlar darsga ijobiy ta'sir etib,uni rang-barang va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi,har qanday loqayd o'quvchini darsga e'tiborini tortadi."Qo'shiqlar orzu-istak tug'diradi,kishini hayotga chorlaydi,firklashga majbur etadi,muhokamalarda mustaqil bo'lish qobiliyatini tarbiyalaydi",-degan edi nemis faylasufi S.T.Strumilin. Darhaqiqat,inson qo'shiq tinglaganda unda ruhiy o'zgarish ro'y berib,beixtiyor orzu va shirin hayollarga beriladi,yanada ishlashga,yashashga intiladi. Bu Amerikalik metodist, ingliz tili o'qituvchisi Kerol Grahamning "Jazz qo'shiq"i orqali isbotlangan, [1,280] Shunday ekan chet tili darslarida shu tildagi qo'shiqlardan foydalanish,zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni qo'llagan holda dars o'tish oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'z sohasini sevuvchi,bilimli va malakali kadrlar yetishib chiqishiga oz bo'lsada turtki bo'ladi.

Qo'shiqlardan foydalanish bolalarning chet tilini o'rganishga qiziqishini rivojlantirishga yordam beradi. Qo'shiqlar o'quv faoliyatini faollashtiradi va o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi va boyitadi. Chet tili darslarida qo'shiqlardan foydalanish o'quvchilarning tinglash qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, ularni estetik tarbiyalashga yordam beradi. Chet tili darslarida qo'shiqlardan foydalanish talabalarni mintaqaviy geografik xarakterdagi bilimlar bilan boyitadi, tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan tanishish imkonini beradi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Graham C. Jass qo'shiqlari. Amerikacha ingliz tili ritmlari ikkinchi til sifatida, Oxford University Press, 1978. 280-bet.

2. Naumenko S.I. The development of musical hearing, singing voice and musical and creative abilities of students of secondary schools. M.: Education, 1982. 310 p.

3. Nikitenko Z, Osiyanova O. Boshlang'ich maktabda ingliz tilini o'qitish mazmunidagi madaniy komponentni ajratib ko'rsatish muammosiga, 1993. No 3. 14-17 betlar.

4. Xurramova M., Omonboyeva M. Chet tilini o'qitishda qo'shiqlardan foydalanishning ahamiyati, Journal of innovations in social sciences, 2023, 195-bet.

5. Tolipov Q, Usmanova M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari,Fan nashryoti, 2006, 20-bet.